

**TURISTIK-REKREASION XIZMATLARNING XORIJ TAJRIBASI VA ULARDAN
SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI**

Tuychiyeva Malika Shokirovna

Qarshi davlat universiteti

Turizm va marketing mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda har bir rivojlanayotgan davlat o'zining rivojlanish salohiyatiga qarab ma'lum bir rivojlangan davlatlar turizm tajribasini o'rganishga harakat qiladi. Bunga asosiy sabab ularning qo'llagan usullari va qo'lga kiritgan yutuqlari zamin bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari ularda yaratilgan imkoniyatlarni qay darajada o'z davlatiga tadbiq etsa bo'ladi degan dolzarb masala ham bu borada ko'ndalang turgan asosiy so'roqlardan biridir.

Kalit so'zlar: Buyuk Britaniya, qishloq bo'y lab, yugurish, baliq ovi, sport, reyting, botanika, covid-19, arxitektura, outdoor, indoor, landshaft, meros qadriyat.

Kirish

Davlatlar miqyosida qaraydigan bo'lsak Buyuk Britaniya o'zining jozibador ko'rinishi va tarixiy-madaniy boyliklari bilan turistlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Xo'sh biz bu davlat tajribasidan nimalarni o'rgansak bo'ladi?

O'zbekiston ham bu borada o'zi uchun zarur bo'lgan turistik imkoniyatlarni chet el tajribalaridan o'rgangan holda hayotga tadbiq etsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Xorijiy mamlakatlarning barchasi o'z strategik turizm potensialiga ega davlatlar sanaladi, shu bilan bir qatorda o'zining betakror tabiatni, tarixiy madaniy boyliklari, bir-birini takrorlamas etnik qadriyatlari bilan bir-biridab tubdan farq qiladi.

Turizmga bir butun soha deb qaraydigan bo'lsak uning tarmoqlari alohida alohida yo'nalishlarga bo'linib ketadi. Sport turizmidan tortib ziyorat turizmigacha barcha turlar bir-birlariga uzviy bog'liq. Shu bilan bir qatorda rekreasjon turizm ham o'z o'rniga ega tarmoqlardan biriga aylanib ulgurgan desak aslo yanglishmagan bo'lamiz.

Buyuk Britaniyadagi mashhur madaniy diqqatga sazovor joylar qanday?

Buyuk Britaniya turistlar va aholi uchun turli xil madaniy diqqatga sazovor joylarga ega. 2021 yilda Windsor Great Park Buyuk Britaniyadagi eng ko'p tashrif buyuriladigan sayyohlik maskani bo'ldi. O'sha yili Crown Estate tomonidan boshqariladigan Vindzordagi Royal Park taxminan 5,4 million

kishini jalg qildi. O'sha yili reytingda yana ikkita ochiq havoda joylashgan attraksionlar - Qirollik botanika bog'lari (Kyu bog'lari) va Chester hayvonot bog'i mos ravishda ikki million va 1,6 millionga yaqin tashrif buyurgan.

Qishloq joylarini yoki ochiq havoda faoliyat turlarini taklif qiladigan yo'nalishlar, futbol yoki boshqa jonli sport turlarini tomosha qilish mumkin bo'lgan tashrif buyuruvchilarning alohida guruuhlarini o'ziga jalg qiladi. Buyuk Britaniyaga ta'tilga kelganlar, ayniqsa, restoranlarda ovqatlanish, xarid qilish va mashhur obidalarimiz va binolarimizni tomosha qilish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Har yili biz xalqaro yo'lovchilar tadqiqotida (IPS) aniq savollarga homiylik qilamiz va xorijdan kelgan qancha tashrif buyuruvchilar Britaniyada bo'lganlarida muayyan tadbirlarni amalga oshirganliklarini bilish uchun. IPS so'rovida Covid-19 cheklowlari tufayli 2020 va 2021 yillar uchun faoliyat ma'lumotlari mavjud emas(1.3.1-jadval)²¹.

So'ralgan faoliyat	Faoliyat bilan bog'liq tashriflar soni (000)	Barcha tashriflarning %	Buyuk Britaniyada sarflangan summa (£m)
Qishloqda sayr qilish	8,751	21%	£7,790
Piyoda yurish, sayr qilish	6,065	17%	£5,317
Sohil bo'ylab yurish	4,584	11%	£4,258
Yugurish uchun	2,042	5%	£2,259
Golf o'ynash	367	1%	£525
Baliq ovlash	112	<1%	£140

1.3.1-jadval. 2019-yilda Buyuk Britaniya ochiq havoda dam olish mashg'ulotlariga tashriflar va va sarflangan mablag'lar.

Jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak ko'rinish turibdiki Britaniyada shahar chetida ya'ni qishloqlarda dam olish va sog'lig'ini tiklashga bo'lgan talab ancha yuqori bunga yaqqol misol sifatida qishloq joylarda sayohatga chiqish ulushi 21% ni tashkil etgani dalil bo'la oladi. Keying pog'onalarga qaraydigan bo'lsak sayr qilish bir so'z bilan aytganda piyoda sayr qilish ikkinchi pog'onani zabit etgan ya'ni 17% bu ko'rsatkichlar turizmning aynan rekreasion faoliyati bilan bog'liq sohalar miqyosida olingan. Eng kam ko'rsatgichni esa baliq ovi tashkil qiladi 1% dan ham kamroq bu albatta turistlar qiziqishi va yoshi bilan bog'liq.

Bundan ko'rinish turibdiki Buyuk Britaniya o'zini turizm sohasidagi salohiyatini boshqa davlatlarga o'mak qilib ko'rsata oladigan darajaga chiqqan desak noto'g'ri bo'lmaydi. Buyuk Britaniyada rekreatsion turizmni

²¹ Recreational activities in the United Kingdom - statistics & facts <https://www.statista.com/topics/6632/leisure-activities-in-the-united-kingdom-uk/> Published by [Statista Research Department](#), Nov 25, 2022

o'zini ikki turga bo'lib o'rganish odat tusiga kirgan ya'ni (Outdoor and Indoor recreation) mussaffo osmon ostida bajariladigan sog'lomlashtirish faoliyatları va yopiq binolarda bajariladigan faoliyatlar, bu ikki tur bir biridan tubdan farq qiladiva albatta ikki turni o'ziga xos shaydolari ko'r. Shu bilan bir qatorda rekreasjon faoliyatni amalga oshirishda individual holda yoki guruh holatida shakllanish ham odat tusiga aylangan.

Bu kabi o'nlab statistikalarni misol rtariqasida keltirishimiz mumkin. Ammo shuni hisobga olish kerakki O'zbekiston ham Buyuk Britaniya davlati kabi tarixiy madaniy boyliklarga juda boy shu bilan bir qatorda uning go'zal tabiat, qishloq turizmi va albatta rekreasjon manzillari potensiali ham yuqori ammo hozirda bizda yuqori darajada turistlarni kutib olish uchun to'laqonli sharoit mavjud emmas chunki turizm faqat sayohatni tashkil qilish bilan bog'liq jarayon emas.

Turizm faoliyatini tashkil qilishda bir qancha sohalarni ham tubdan ko'rib chiqishga to'g'ri keladi, ovqatlanish xizmati, transport xizmati, mehmonxonalar xizmati, madaniy boyliklar, mahalliy aholi madaniyatiga to'g'ri keladigan sharoit yaratish kabi dolzarb masalar o'z navbatida yechimini kutib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Григорьев В.И. Симонов В.С. Стратегия формирования индустрии рекреации. -СПб.: Инд по СПбГУЭФ, 2014

2.Recreational activities in the United Kingdom - statistics & facts
<https://www.statista.com/topics/6632/leisure-activities-in-the-united-kingdom-uk/> Published by [Statista Research Department](#), Nov 25, 2022

3.Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: учебное пособие. –Т.: Филиал ФГБОУ ВПО “РЭУ им. Г.В. Плеханова” в г. Ташкенте, 2013.- С 25.

4.Dunyoning rekreatsion resurslari. Dunyo rekreatsion resurslari geografiyasi.

<https://optolov.ru/uz/calculation-of-materials/rekreacionnye-resursy-mira-geografiya-rekreacionnyh-resursov.html>